

Kredit tarixini taqdim etish shartlari va tartibi to'g'risida foydalanuvchi kelishuvi

1. Ushbu kelishuvda quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

1.1 **"Kredit byurosi"** - O'zbekiston Respublikasining 02.07.2019y. "Kredit axborot almashinuvi to'g'risida"gi va 02.07.2019y. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunlariga muvofiq, kredit axboroti almashinuvi bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

1.2 **"Subyekt"** - jismoniy shaxs, shuningdek kredit bitimi bo'yicha qarz oluvchi (qarzdor), lizing oluvchi, kafil, kafolat beruvchi, garovga qo'yuvchi, shuningdek sug'urtalovchi sifatida ishtirok etuvchi jismoniy shaxs;

1.3 **"Kredit tarixi"** - Kredit byurosi tomonidan kredit axboroti Subyektiga nisbatan shakllantirilgan kredit axborotlari majmui;

1.4 **"So'rov"** - Xizmatlardan foydalanish uchun Subyekt tomonidan Kredit byurosiga yuborilgan so'rov;

1.5 **"Xizmatlar"** - Kredit byurosi Subyektga ushbu kelishuvi asosida kredit tarixini taqdim etadi, bu Subyektning kredit qobiliyatini, moliyaviy ahvolini, to'lov qobiliyatini va to'lov intizomini baholashga yordam beradi.

2. Kredit tarixini taqdim etish turi, shakli, tartibi:

2.1 Kredit byurosi, Subyektning so'roviga asosan, unga kredit tarixini, shuningdek, boshqa xizmatlarni taqdim etadi.

2.2 Subyekt mazkur kelishuvini tasdiqlaganidan so'nggina kredit tarixini olishga so'rov yuborishi mumkin va bu Subyektning o'z kredit tarixini taqdim etilishiga bergan roziligi hisoblanadi.

2.3 Subyekt veb-saytdagi yo'riqnomalarga asosan, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haqni to'lov tizimlari (masalan: PAYNET, PAYME, CLICK va boshqalar) orqali onlayn tarzda to'lashi mumkin.

2.4 Shaxsiy kabinetga kirish ERI (elektron raqamli imzo), ID kodi (id.egov.uz saytida identifikatsiyadan o'tish) yordamida va Kredit byurosi tomonidan Subyektning so'roviga muvofiq taqdim etilgan login va paroldan foydalangan holda kirishi mumkin.

3. Kredit byurosining huquq va majburiyatlari:

3.1. Kredit axborotining elektron shakldagi ma'lumotlar bazasini yuritishi va uni muntazam ravishda yangilab borishi;

3.2. Kredit byuro quyidagi huquqlarga ega:

- xizmatlar ko'rsatish shartlarini o'zgartirish;
- agar Subyekt noto'g'ri, ishonchsiz va yaroqsiz ma'lumotlarni taqdim etgan taqdirda, xizmatlardan foydalanishni bir tomonlama cheklash yoki bekor qilish;
- Subyektning mobil telefoni raqamiga qisqa matnli xabarlarini (SMS) yuborish;

4. Subyektning huquq va majburiyatlari:

4.1. Subyekt ushbu kelishuvi, Kredit byurosi xizmatlari narxlari, shuningdek, sayt sahifalaridagi boshqa shartlar bilan tanishib chiqishi shart va:

- identifikatsiya orqali aniqlash mumkin bo'lgan barcha kerakli va haqiqiy ma'lumotlarni Kredit byuroga taqdim etadi;
- ushbu kelishuvining tartibi va shartlariga muvofiq, foydalanadigan xizmatlar uchun to'lovni amalga oshiradi;
- shaxsiy kabinetdagi identifikatsiya ma'lumotlarini uchinchi shaxsga taqdim etishda shaxsan javobgar hisoblanadi.

4.2. Subyekt bir nechta kredit byurosidan Kredit tarixini olish huquqiga, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega.